
“Toshloq” jamoasi yangi mavsumga tayyorgarlikni davom ettirmoqda.

Farg’ona viloyat birinchiligi ishtirokchilaridan biri Toshloq tumanining “Toshloq” jamoasi yangi mavsumga tayyorgarlikni davom ettirmoqda. Mashg’ulotlarni Aziz Mamajonov va Kamoliddin Ashurovlar olib borishmoqda. Mashg’ulotlar kuniga ikki mahaldan bo’lib o’tmoqda. Jamoa safida bir qator taniqli futbolchilar boriligi ham ta’kidlash joiz. Bular, “Neftchi”dagi o’yinlari bilan nom qozongan Sardor Soipov, Doston Tursunzoda, Jahongir Yusufjonov. Shuningdek, toshloqliklar mashg’ulotlarida Aleksandr Kroxmal, Lochin Ismoilov, Asil Mo’ydinov kabi tajribali o’yinchilar ham ishtirok etishmoqda.

2018-01-18 14:31:27